

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Toshkent Moliya instituti

“Kredit-iqtisod” fakulteti

“Bank hisobi va audit” kafedrası

“Pul, kredit va banklar” fanidan

REFER

Mavzu: Osiyo taraqqiyot banki:

**Bajardi: Elmurodov T
Imiy rahbar: Asrorov O**

Toshkent – 2015

Osiyo taraqqiyot banki: yuzaga kelishi, maqsadi va vazifalari

Reja:

Kirish

- 1. Osiyo Taraqqiyot Bankining vujudga kelishi**
- 2. Osiyo Taraqqiyot Banki va O'zbekiston Respublikasi
bilan aloqalri**

Kirish

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) 1966-yilda tashkil etilgan

Osiyo va Tinch okeani davlatlarida texnik yordam va qarzlar berish orqali iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishni maqsad qilib qo'ygan hududiy taraqqiyot banki hisoblanadi. U umumiy hisobda 66ta a'zo, 47tasi hududiy va 19tasi dunyoning boshqa hududlaridan, tomonidan egalik qilinuvchi, ko'ptomonlama rivojlanish moliyaviy institutidir. OTBning bosh maqsadi nochorlikdan xoli bo'lgan hudud shakllantirishdir. Uning vazifasi rivojlanayotgan a'zo davlatlariga nochorlikni kamaytirish va o'z fuqarolarining hayot tarzini ko'tarishiga yordam berishdir.

OTBning faoliyati Osiyo va Tinch okean ko'rfazida yashayotgan, ayniqsa kunlik \$2dan kam tushumga ega bo'lgan 1.9 milliardlik axolining turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan. Ko'p sonlik muvaffaqiyatli hikoylariga qaramay, ushbu hudud butun dunyoning 2/3 nochor axolisi yashaydigan hudud bo'lib qolmoqda.

Dastlab Bank Jahon bankining asosan AQSh, Yaponiya va Yevropa davlatlari (ayniqsa Shimoliy va Germaniya) hukumatlari ta'siriga ega bo'lgan, hududiy nusxasi sifatida tashkil etilgan. Bank o'z qarz berish xarakatlarini, millatlararo tan olingan bond(taniqli nom)larni evropa bozoriga qo'yish orqali moliyalashtirgan. Garchi a'zo davlatlarning iqtisodiy rivojlanishi OTBning faoliyatini ham birmuncha o'zgartirgan bo'lsada, bank o'z tarixida asosan proektlar asosida, xususan infrastruktura investitsiyalari, qishloq xo'jaligi rivoji va a'zo davlatlardagi oddiy sanoatini rivojlantirish uchun qarz berish, orqali faoliyat yuritgan. Berilgan ta'rif bo'yicha bank davlat va davlat tashkilotlariga qarz beruvchi bo'lsada, u hududiy a'zo davlatlarining xususiy sektorni rivojlantirish va likvidatsiyani yaxshilash borasida ham faollik ko'rsatgan.

Bankning asosiy inson kapitali bu uning qishloq xo'jaligi, fuqaroviy muhandislik, iqtisod, ommaviy siyosat va moliya sohasidagi nazariy va amaliyotchi ekspertlaridir. Bu ekspertlar butun dunyodan bo'lib, Manilada joylashishgan va har xil imtiyozlar, shu jumladan diplomatik status hamda

solliqlardan xoli maosh, berilgan. Tasavvur qilinadiki, agar qachondir Osiyo aniq bir yashash standartiga erishsa, bank yo‘qoladi yoki tijorat tashkilotiga aylantiriladi.

Osiyo Taraqqiyot Bankining vujudga kelishi

Osiyo Taraqqiyot Banki 1966 yilning 22 avgustida 15 ta mamlakat orqali ratifikatsiya qilinishi bilan kuchga kirdi. Bank o'zining o'z kredit faoliyatini 1966 yil 19 dekabrda boshladi.

BMTning Osiyo va Tinch okeani bo'yicha iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasining (OTOIK(ESKATO)) a'zo mamlakatlar taklifiga ko'ra Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga yordam berish uchun tashkil etilgan.

Bugungi kunda 67 mamlakat OTBning a'zosi hisoblanadi, shu jumladan, 44 ta Osiyo va Tinch okean mamlakatlari va 17 ta sanoat rivojlangan mamlakatlar.

OTB shtab - kvartirasi **Manila shahrida (Filippin)**

OTB prezidenti 5 yil muddatga saylanadi.

Prezidenti: 1999 yil 16 yanvardan Tadao Chino

2007 yil 2 fevral ,ma'lumotlariga ko'ra Osiyo Taraqqiyot Banki capital ulushi va ovoz berish huquqi qo'yidagicha

	Kapital to'lovi		Ovoz berish huquqi		
Davlatlar	Ulushdagi miqdori	Jamiga nisbatan foizda	Ovoz miqdori	Jamoga nisbatan foizda	Reg va no-reg.ga n-n foiz
Regiona davlatlar					
<u>Afghanistan</u>	1,195	0.034	14,427	0.325	0.5

<u>Armenia</u>	10,557	0.298	23,789	0.537	0.825
<u>Australia</u>	204,740	5.773	217,972	4.917	7.56
<u>Azerbaijan</u>	15,736	0.444	28,968	0.653	1.005
<u>Bangladesh</u>	36,128	1.019	49,360	1.114	1.712
<u>Bhutan</u>	220	0.006	13,452	0.303	0.467
Brunei Darussalam	12,462	0.351	25,694	0.58	0.891
<u>Cambodia</u>	1,750	0.049	14,982	0.338	0.52
<u>China, People's Republic of</u>	228,000	6.429	241,232	5.442	8.367
<u>Cook Islands</u>	94	0.003	13,326	0.301	0.462
<u>Fiji Islands</u>	2,406	0.068	15,638	0.353	0.542
Georgia	12,081	0.341	25,313	0.571	0.878
<u>Hong Kong, China</u>	19,270	0.543	32,502	0.733	1.127
<u>India</u>	224,010	6.317	237,242	5.352	8.229
<u>Indonesia</u>	192,700	5.434	205,932	4.646	7.143
<u>Japan</u>	552,210	15.571	565,442	12.756	19.612
<u>Kazakhstan</u>	28,536	0.805	41,768	0.942	1.449
<u>Kiribati</u>	142	0.004	13,374	0.302	0.464
<u>Korea, Republic of</u>	178,246	5.026	191,478	4.32	6.641
<u>Kyrgyz Republic</u>	10,582	0.298	23,814	0.537	0.826
<u>Lao PDR</u>	492	0.014	13,724	0.31	0.476
<u>Malaysia</u>	96,350	2.717	109,582	2.472	3.801
<u>Maldives</u>	142	0.004	13,374	0.302	0.464

<u>Marshall Islands</u>	94	0.003	13,326	0.301	0.462
<u>Micronesia, Federated States of</u>	142	0.004	13,374	0.302	0.464
<u>Mongolia</u>	532	0.015	13,764	0.31	0.477
<u>Myanmar</u>	19,270	0.543	32,502	0.733	1.127
<u>Nauru</u>	142	0.004	13,374	0.302	0.464
<u>Nepal</u>	5,202	0.147	18,434	0.416	0.639
<u>New Zealand</u>	54,340	1.532	67,572	1.524	2.344
<u>Pakistan</u>	77,080	2.174	90,312	2.037	3.132
<u>Palau</u>	114	0.003	13,346	0.301	0.463
<u>Papua New Guinea</u>	3,320	0.094	16,552	0.373	0.574
<u>Philippines</u>	84,304	2.377	97,536	2.2	3.383
<u>Samoa</u>	116	0.003	13,348	0.301	0.463
<u>Singapore</u>	12,040	0.34	25,272	0.57	0.877
<u>Solomon Islands</u>	236	0.007	13,468	0.304	0.467
<u>Sri Lanka</u>	20,520	0.579	33,752	0.761	1.171
<u>Taipei,China</u>	38,540	1.087	51,772	1.168	1.796
<u>Tajikistan</u>	10,134	0.286	23,366	0.527	0.81
<u>Thailand</u>	48,174	1.358	61,406	1.385	2.13
<u>Timor-Leste</u>	350	0.01	13,582	0.306	0.471
<u>Tonga</u>	142	0.004	13,374	0.302	0.464
<u>Turkmenistan</u>	8,958	0.253	22,190	0.501	0.77
<u>Tuvalu</u>	50	0.001	13,282	0.3	0.461

<u>Uzbekistan</u>	23,834	0.672	37,066	0.836	1.286
<u>Vanuatu</u>	236	0.007	13,468	0.304	0.467
<u>Viet Nam</u>	12,076	0.341	25,308	0.571	0.878
Region Jami	2,247,995	63.390	2,883,131	65.040	100.000
Regionda bo'lmagan davlatlar					
<u>Austria</u>	12,040	0.34	25,272	0.57	1.631
<u>Belgium</u>	12,040	0.34	25,272	0.57	1.631
<u>Canada</u>	185,086	5.219	198,318	4.474	12.797
<u>Denmark</u>	12,040	0.34	25,272	0.57	1.631
<u>Finland</u>	12,040	0.34	25,272	0.57	1.631
<u>France</u>	82,356	2.322	95,588	2.156	6.168
<u>Germany</u>	153,068	4.316	166,300	3.752	10.731
<u>Ireland</u>	12,040	0.34	25,272	0.57	1.631
<u>Italy</u>	63,950	1.803	77,182	1.741	4.98
<u>Luxembourg</u>	12,040	0.34	25,272	0.57	1.631
<u>The Netherlands</u>	36,294	1.023	49,526	1.117	3.196
<u>Norway</u>	12,040	0.34	25,272	0.57	1.631
<u>Portugal</u>	12,040	0.34	25,272	0.57	1.631
<u>Spain</u>	12,040	0.34	25,272	0.57	1.631
<u>Sweden</u>	12,040	0.34	25,272	0.57	1.631
<u>Switzerland</u>	20,650	0.582	33,882	0.764	2.186
<u>Turkey</u>	12,040	0.34	25,272	0.57	1.631
<u>United Kingdom</u>	72,262	2.038	85,494	1.929	5.517

<u>United States</u>	552,210	15.571	565,442	12.756	36.487
No-Region Jami	1,298,316	36.610	1,549,724	34.960	100.000
JAMI	3,546,311	100.000	4,432,855	100.000	

Manba: Osiyo Taraqqiyot banki

9 fevral 2007yil

OTB faoliyatining asosiy yo'nalishlari:

- Investisiya loyihalarini moliyalashda uzoq muddatli va imtiyozli shartlar bilan 40 yilgacha bo'lgan kreditlarni yiliga 1 % dan berish; tijorat kreditlarini 3 yillik imtiyozli davr bilan 15 yilgacha berish
- Rivojlanayotgan mamlakatlar - a'zolarga ularning iqtisodiy rivojlanish rejalarini koordinasiyalash, shuningdek, moliyalashga tayyorlash va loyihalarni hamda rivojlanish dasturini amalga oshirishga yordam berish;
- Xalqaro moliyaviy institutlar, milliy davlat va xususiy tashkilotlar bilan investisiyalarni birgalikda amalga oshirishga taalluqli masalalarda hamkorlik qilish
- Mintaqada iqtisodiy o'sish va hamkorlikni rag'batlantirish uchun zarur ekspert xizmati va maslahatlarining turli shakllarini uyushtirish.

OTB faoliyatining ustuvor sohalari mintaqaning butunicha uyg'unlashgan holda eng samarali yordam beradigan mintaqaviy va milliy dasturlardir.

Bu sohalar quyidagilar:

- Qishloq xo'jaligi va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash
- Avtomobil va temir yo'llarni ta'mirlash va qayta qurish
- Tog'-kon sanoati
- Sog'liqni saqlash va ekologiya
- Turizm infratuzilmasini rivojlantirish
- Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish
- Bank tizimini rivojlantirish

Jamg'armalarning ko'payish manbalari xususiy va davlat tushumlaridir

Osiyo Taraqqiyot Bankining **maqsad-vazifasi** rivojlanayotgan mamlakatlar-ning iqtisodiy rivojlanishini va iqtisodiy o'sishini, ham jamoaviy ham individual rag'batlantirish hisoblanadi

Osiyo Taraqqiyot Bankiga a'zolik BMT ning iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha Osiyo-TinchOkean Komissiyasi a'zolariga, shuningdek boshqa mintaqalar rivojlangan mamlakatlari va BMT ga va uning biron bir boshqa maxsus agentliklariga a'zo mamlakatlar uchun ochiq. 17 rivojlangan mamlakat, boshqa mintaqadan AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya va 17 g'arbiy evropa mamlakati-ni a'zolikka olgan.

Bank operatsiyalari ikki asosiy manbadan: oddiy kapital mablag'lari va maxsus mablag'lardan moliyalashtiriladi.

Oddiy kapital mablag'lari Osiyo Taraqqiyot Bankiga a'zo mamlakatlarning kapital ulushlarini to'lashlaridan va investitsiyalardan keladigan daromad hisobiga shakllanadi.

Maxsus mablaglar a'zo rivojlangan mamlakatlar badallari, maxsus fondlar, ssudalar va investitsiya-lardan daromadlar, shunindek, Osiyo Taraqqoyot Banki kengashi maxsus qaroriga binoan oddiy kapital mablag'larini o'tkazish summolari ko'rinishida shakllanadi.

Osiyo Taraqqiyot BankiMaxsus mablag'lari katta bo'lmagan va kambag'al a'zo mamlakatlarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida imtiyozli ssudalar shahobchalarini tashkil etgan.

1973 yilda bank maxsus mablag'lar ni doimiyligini ta'minlash maqsadi-da Osiyo Taraqqiyot Fondi tashkil etildi.

O'zbekiston Osiyo Taraqqiyot Bankiga 1995 yilning avgustida a'zo bo'lib kirgan.Respublikamizning bu bankka a'zo bo'lishi iqtisodiy o'zgarish jarayonini ma'lum darajada tezlashtiradi hamda tadbirkorlik va biznesni turli xil formalarini rivojlanishiga ko'maklashadi

1996 yilning 17 dekabrda Osiyo Taraqqiyot Bankining direktorlar kengashi O'zbekistonga 50 mln. AQSh dollari miqdorida kredit liniyasini 13 yil mudatga,dastlabki 3 yilini imtiyozli shartda ochishga qaror qildi. Bugungi kunda

bu kredit liniyasi to'liq o'zlashtirilgan bo'lib, o'nlab kuchik va o'rta biznes loyihalari moliyalashtirildi.

Osiyo Taraqqiyot Banki asosan o'z kreditlarini texnologiya va


Osiyo Taraqqiyot Banki a'zosi	
A'zo boldi:	1995
Kapital ulushi	23,834 (0.672%)
Ovoz huquqi	37,066 (0.836%)

uskunalarni sotib olish, ishchi kapital xarajatlarini qisman qoplashga, qishloq xo'jaligi sektorida mavjud uskunalarni modernizatsiya qilish, qayta qurollantirish va yangi ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan sub loyihalarni moliyalashtirishga beriladi.

Bu kredit liniyasining qarz oluvchisi bo'lib asosan O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Milliy Banki hisoblanadi. Sub qarz oluvchi bo'lib xususiy, kichik va o'rta korxonalar bo'lishi mumkin. Kredit olish uchun loyiha export va import o'rnini bosadiga mahsulot ishlab chiqarilishi va valyutada o'zini qoplashi kerak.

ADB Assistance to Uzbekistan


Figure 1. Uzbekistan: Loans and Disbursements, 1995–2005



Cumulative Lending
(as of Dec 2005) \$914.7 million

Cumulative Disbursements
(as of Dec 2005) \$374.3 million

Figure 2. Uzbekistan: Grants, Technical Assistance, and Loans, 1995–2005



Osiyo Taraqqiyot Banki asosan o'z kreditlarini texnologiya va uskunalarni sotib olish, ishchi kapital xarajatlarini qisman qoplashga, qishloq xo'jaligi sektorida mavjud uskunalarni modernizatsiya qilish, qayta qurollantirish va yangi ishlab chiqarishni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan sub loyihalarni moliyalashtirishga beriladi.

Bu kredit liniyasining qarz oluvchisi bo'lib asosan O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Milliy Banki hisoblanadi. Sub qarz oluvchi

bo'lib xususiy, kichik va o'rta korxonalar bo'lishi mumkin. Kredit olish uchun loyiha export va import o'rnini bosadiga mahsulot ishlab chiqarilishi va valyutada o'zini qoplashi kerak.

Kredit uzog'i bilan 7 yil muddatga, shundan 3 yil imtiyozli shartda beriladi. Berilayotgan kreditning maksimal summasi 5mln AQSh dollarini tashkil etadi. Lekin bu summa loyihaning dastlabki qiymatining – 75 foizini qoplashi kerak. Uskunalar va texnologiyalar ta'minotchisi Osiyo Taraqqiyot Bankining a'zosi bo'lishi kerak. Osiyo Taraqqiyot Bankiga a'zo mamlakatlar: Osiyo davlatlari, AQSh, Kanada, G'arbiy Yevropa davlatlari, Avstraliya Turkiya davlatlari kiradi. Bu bankka a'zo bo'lmagan davlatlar qatoriga Yaqin Sharq, MDH davlatlari (Qozog'iston, Qirg'ziston, O'zbekistonni) qo'shmagan holda, Sharqiy Yevropa va boshqa davlatlar.

Osiyo Taraqqiyot Bankining kreditini olish qarz oluvchi loyihada qiymatning kamida 25 foizga o'z mablag'lariga ega bo'lishi kerak. Qarz oluvchi ta'minot sifatida – bino, inshoot, mashina-uskunalar va ishlab chiqarish jarayonidan olinadigan aylanma kapital hamda moliyaviy xarajatlari qoplash uchun boshqa mablag'larga ega bo'lishi kerak. Garov ta'minoti sharti olinayotgan kredit summasining 120%dan kam bo'lmasligi kerak.

Taqdim etilayotgan kredit uchun foiz stavkasi qo'yidagigacha bo'ladi:

Osiyo Taraqqiyot Banki foiz stavkasi + O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Milliy Banki marjasi.

Milliy bank marjasi subloyihalarni baholash qiymatidan kelib chiqib kredit summasining 0,5%-3%gacha tashkil etadi. Kreditni boshqarganlik uchun komission haq – kredit summasining yillik 0,15 foiz miqdorida (so'mda) to'lanadi. Asosiy qarzni qaytarish har 6 oyda amalga oshiriladi

Osiyo Taraqqiyot Banki O'zbekistonda ko'plab loyihalarni moliyalashtirish uchun reja tuzgan. Bunga ko'ra loyihalar 2006 yildan 2010 yilgacha amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Bu loyihalarga sog'liqni saqlash, ta'lim sohasiga, nogironlarga beg'araz yordam shaharlarda kanalizatsiyani yaxshilash, suv yetkazib berish va boshqalar. 2006 yildan 2008 yilgacha 14ta

shunga o'zlashtirilgan loyihalarni moliyalashtirish ko'zda tutilgan. 1996yildan beri OTB 19 loyiha bo'yicha 21 ta qarz bergan. Bu qarzning umumiy summasi 914,7mln dollarni tashkil etdi.

Osiyo Taraqqiyot Banki O'zbekistonga iqtisodiy rivojlantirish uchun 300 mln AQSh dollari kredit berishini ma'lum qildi. Osiyo Taraqqiyot Bankining ma'lumatiga ko'ra har yili va'da qilingan kreditning 100 mln AQSh dollar ajratiladi av kredit 3 yil davomida beriladi. Uning 70 foizini bankka ko'ra qishloq joylaridagi taraqqiyot dasturini amalgam oshirish uchun ishlatiladi. Qolgan qismi esa hususiy sektorni rivojlantirish, transport va ta'lim sohalarini rivojlantirish, yaxshilash uchun sarf qilinadi.

O'zbekistonning iqtisodiy indikatori 2001-2005 yillar uchun 3-jadval

Table 2. Uzbekistan: Economic Indicators, 2001–2005					
Economic Indicator	2001	2002	2003	2004	2005
Per capita GNI (\$)	560	450	420	460	...
GDP growth (% change per year)	4.2	4.2	4.4	7.7	7.0
CPI (% change per year)	27.4	27.6	10.3	1.6	7.8
Unemployment rate (%)	0.3	0.3	0.2	0.2	...
Fiscal balance (% of GDP)	0.2	-0.9	-1.3	0.0	0.1
Export growth (% change per year)	-6.6	-8.4	29.1	31.6	17.9
Import growth (% change per year)	4.6	-14.4	10.0	27.3	21.7
Current account (% of GDP)	-1.0	1.2	8.9	8.4	9.4
External debt (% of GNI)	43.4	50.1	51.0	...	...
... = data not available. GNI = gross national income, GDP = gross domestic product, CPI = consumer price index. Sources: ADB. 2006. <i>Asian Development Outlook 2006</i> . Manila. ADB Statistical Database System.					

Osiyo Taraqqiyot Banki O'zbekistonga 36 mln. AQSh dollari miqdoridagi zayom ajratish to'g'risida qaror qabul qildi.

Zayom paxta va bug‘doy yetishtiruvchi fermerlani qo‘llab - quvvatlash uchun yo‘naltirilgan“Hukumat sotib olish tizimini” reforma strategiyalarini tekshrish va “Sirdaryo viloyatining Oqoltin tumanida xo‘jaliklarni qayta qurish va infratuzilmasini yaxshilashni qo‘llab - quvvatlash” loyihalari uchun sarflanadi.

Zayom 5 yil imtiyozli 25 yilga berildi.

Loyihaning umumiy qiymati 72 mln. dollar bo‘lib, 34 mln.ini hukumati moliyalashtiradi. Osiyo Taraqqiyot Banki Jizzax, Guliston va Qarshi shaharlarining suv tizimini yaxshilash maqsadida 36 mln. AQSh dollari miqdorida mablag‘ ajratdi.Osiyo Taraqqiyot Bankiqurg‘oqchilik oqibatlarini bartaraf etishga \$2,52 mln ajratdiOsiyo Taraqqiyot Banki Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurg‘oqchilik oqibatlarini bartaraf etishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida Qoraqalpog‘istonga \$2,52 mln miqdorida mablag' ajratdi. Osiyo Taraqqiyot Banki Markaziy Osiyo transport sektori uchun \$150 ming ajratadi Osiyo Taraqqiyot Banki Markaziy Osiyo transport sektorini rivojlantirishda texnik ko'maklashish maqsadida \$150 ming ajratadi. Bojxonalar Hamkorligi qo‘mitasi yig‘ilishi

UzReport.com Posted 10.10.2006

Toshkentdagi Oliy harbiy bojxona institutida Osiyo Taraqqiyot Banki Bojxonalar hamkorligi qo‘mitasining ikkinchi uchrashuvi boshlandi. Unda O‘zbekiston, Xitoy, Qozog‘iston, Mo‘g‘uliston, Qirg‘iziston, Tojikiston bojxonalari idoralari rahbarlari hamda OTB vakillari va xalqaro ekspertlar ishtirok etdi.

Osiyo Taraqqiyot Banki va O'zbekiston Respublikasi

bilan aloqalri

2002 yilning 20-21 avgustida Xitoyning Urumchi shahrida Bojxonalar hamkorligi qo'mitasining birinchi uchrashuvi bo'lib o'tgan edi. Unda hamkorlikda amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan tadbirlar loyihasi va bojxona tizimidagi islohotlarni hayotga joriy qilish bilan bog'liq masalalar muhokama etilgandi.

Bojxonalar hamkorligi qo'mitasining bu galgi ikkinchi uchrashuvida esa bojxona ishi va hujjatlashtirish tartibini soddalashtirish hamda birxillashlashtirish, chegaralardan o'tish joylarini birgalikda takomillashtirish, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan loyiha va strategiyani ishlab chiqish, sohaga axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga oid masalalarni muhokama qilish mo'ljallangan

Ta'kidlash joizki, xorijiy kredit liniyalari tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalar tufayli qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, yengil sanoat, qurilish materiallari, chanqovbosdi ichimliklar va boshqa xalq iste'moli mollari ishlab chiqarilishi ta'minlanmoqda. Natijada mamlakatimizning importga bo'lgan ehtiyoji kamaytirilib, eksport salohiyati kuchaymoqda. Masalan, "Paxta Bank" tomonidan Osiyo taraqqiyot banki kredit liniyasi hisobidan "Osiyo Ekspres" yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatiga 1755000 AQSH dollari miqdorida kredit ajratilgan edi. Bu mablag'ga Italiyaning "Fenko Spa" firmasining yuqori texnologiyasi sotib olindi. Bugungacha korxona tomonidan qariyb 2000 tonnadan ziyod tomat pastasi va meva pyuresi tayyorlanib, aksariyat qismi Rossiya va Qozog'istonga eksport qilindi.

Mamlakatimizga tashrif buyurgan Osiyo taraqqiyot bankining Markaziy va G'arbiy Osiyo departamenti Bosh direktori Xuan Miranda rahbarligidagi delegatsiya qator vazirlik va idoralarda muzokaralar o'tkazdi

Nufuzli xalqaro moliyaviy tashkilotlardan biri bo'lgan Osiyo taraqqiyot banki (OTB) delegatsiyasining tashrifidan ko'zlangan asosiy maqsad O'zbekiston bilan hamkorlik aloqalarini yanada mustahkamlashdan iborat. Muzokaralarda tomonlar o'zaro manfaatli aloqalarning bugungi ahvoli va istiqbollari yuzasidan

fikr almashdi. O'zbekiston bilan OTB o'rtasidagi aloqalar jadal rivojlanib borayotgani, iqtisodiy infratuzilmani, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga oid loyihalarda mazkur moliyaviy muassasa mamlakatimizning faol hamkorlaridan ekani qayd etildi.

Osiyo taraqqiyot banki 1996 yildan buyon mamlakatimiz iqtisodiyotining turli sohalariga sarmoya kiritish orqali amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlab kelmoqda. OTB bilan hamkorlik samaralari ta'lim, tabiiy resurslarni o'zlashtirish va qishloq xo'jaligi, transport va kommunikatsiyalar, sog'liqni saqlash, moliya, sanoat va savdo, energetika kabi sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Osiyo taraqqiyot banki 2006 yilning mart oyida O'zbekiston uchun 2006-2010 yillarga mo'ljallangan hamkorlik strategiyasi va dasturini tasdiqlagan.

Cumulative Assistance: \$950.72 million***Table 3. Uzbekistan: Cumulative ADB Lending as of 31 December 2005**

Sector	Loans (no.)	Amount (\$ million)	% ^a
Education	7	260.5	28.5
Transport and Communications	3	190.0	20.8
Agriculture and Natural Resources	4	185.2	20.2
Water Supply, Sanitation and Waste Management	3	99.0	10.8
Energy	1	70.0	7.7
Industry and Trade	1	50.0	5.5
Health, Nutrition, and Social Protection	1	40.0	4.4
Finance	1	20.0	2.2
TOTAL^b	21	914.7	100.0

^a Total may not add due to rounding.^b Includes loan component of a regional project in Uzbekistan.**Figure 3. Uzbekistan: Project Success Rates^a**

By Sector						Evaluation (no.)
Sector	Percentage					
Agriculture	100					1
Energy/Transport/ Communications	0					
Social Infrastructure	100					
Finance	0					
Industry/Multisector/ Others	0					

By Year of Approval						Evaluation (no.)
Year	Percentage					
1990-1997	100					2
1980s						
1970s						

^a Includes highly successful and successful projects.

O'zbekiston markaziy banki raisi F.Mullajonov, tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki raisi, OTBning O'zbekiston Respublikasi tomonidan boshqaruvchisi S.Rahimov bilan muzokarlarda mamlakatimiz bank sohasida qo'lga kiritayotgan yutuqlar va amalga oshirayotgan izchil islohotlar OTB bilan aloqalarni yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etayotgani ta'kidlandi.

Mehmonlar, shuningdek, O'zbekiston Iqtisodiyot vazirligi, Transport va transport kommunikatsiyalari uyushmasi hamda «O'zbekiston temir yo'llari» davlat aksionerlik kompaniyasida ham muzokaralar o'tkazdi.

"Umumiy ta'lim sohasidagi investisiyalar va islohotlarni samarali boshqarishga ko'maklashish" loyihasi (Osiyo Taraqqiyot banki, 2006-2008 yy. 400 ming AQSh doll., Texnik ko'mak)

Ushbu loyihaning maqsadi - vazirlik huzurida Osiyo Taraqqiyot banki bilan hamkorlikda "Donorlarning faoliyatini muvofiqlashtirish Markazi"ni tuzish, va ushbu markaz orqali tizimda amalga oshirilayotgan barcha loyihalarni muvofiqlashtirish va boshqarish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1997 yil 14 martda chiqargan "Osiyo Taraqqiyot Banki kredit yo'nalishidan foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 146-son qarorni bajarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Osiyo Taraqqiyot Banki o'rtasida 1997 yil 7 mayda Qarz va Loyiha bitimlari imzolangan. Ularga ko'ra, osiyo taraqqiyot banki O'zbekiston Respublikasiga 15 yil muddatga 50 mln. AQSH dollari hajmida kredit yo'nalishi ochdi

Bu yo'nalish bo'yicha kreditlar O'zbekiston Respublikasining qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan kichik va o'rta korxonalari loyihalarini moliyalashga ajratilishi kerak edi.

Osiyo Taraqqiyot Banki taqdim etadigan mablag'lardan samarali foydalanish, ushbu kredit yo'nalishi doirasida ko'zda tutilgan loyihalar moliyalay boshlanishini va amalga oshirilishini tezlashtirish maqsadida 1997 yil 9 mayda O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan O'zmilliybank o'rtasida qayta kreditlash to'g'risida bitim tuzildi. Ushbu Bitimga muvofiq, Milliy bankka mazkur yo'nalish mablag'laridan foydalanish huquqi berildi.

Hozirgi vaqtda Osiyo Taraqqiyot Banki kredit yo'nalishi doirasida 120dan ortiq investitsiya loyihalari ko'rib chiqildi. Shulardan 30tasi moliyalashga qabul qilindi: bunda investitsiya loyihalarining jami qiymati 70.557.965,00 AQSH

dollarini, tuzilgan kredit shartnomalari umumiy hajmi esa 50.000.000,00 AQSH dollarini tashkil etdi, buning ustiga ulardan 28tasi bo'yicha moliyalash ishlari boshlandi va 21 loyiha bo'yicha ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. SHunday qilib, kredit yo'nalishi mablag'lari to'liq taqsimlandi.


Moliyalashga qabul qilingan loyihalar, agar ularni ishlab chiqariladigan mahsulot turiga qarab tasniflaydigan bo'lsak, shartli ravishda quyidagi 11 guruhga bo'linishi mumkin:

1.	muzqaymoq ishlab chiqarish
2.	tomat pastasi ishlab chiqarish
3.	mevalarni qayta ishlash (konsentratsiyalangan meva sharbatlari, bo'tqalari, murabbolar, muzlatilgan mevalar)
4.	sutni qayta ishlash
5.	o'simlik yog'i ishlab chiqarish
6.	makaron mahsulotlari ishlab chiqarish
7.	qandolatchilik mahsulotlari (karamel, shokolad, vafli, pechenye va non-bulka mahsulotlari) ishlab chiqarish
8.	mineral suvni qadoqlab quyish
9.	pivo ishlab chiqarish va qadoqlash
10.	jun yuvish
11.	sosiskalar ishlab chiqarish

Osiyo Taraqqiyot Banki kredit yo'nalishi bo'yicha moliyalashga qabul qilingan loyihalar qaysi tarmoq va mintaqalarga mansubligi 1 va 2-diagrammalarda, investitsiya loyihalarining ular maqomi bo'yicha taqsimlanishi 3-diagrammada ko'rsatilgan (foizli ulushlar kredit shartnomalari summasining tuzilgan kredit bitimlari umumiy qiymatidagi salmog'ini bildiradi).


OTBning kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga mo'ljallangan I kredit yo'nalishi
O'zbekiston Respublikasi tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi

1-diagramma




Osiyo Taraqqiyot Bankining kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga mo'ljallangan
I kredit yo'nalishi O'zbekiston Respublikasi viloyatlari bo'yicha taqsimlanishi

2-diagramma



Osiyo Taraqqiyot Bankining kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga mo'ljallangan I kredit yo'nalishi korxonalar maqomi bo'yicha taqsimlanishi

3-diagramma



2000 yil 1-14 aprel kunlari Osiyo Taraqqiyot Bankining qarz masalalari bo'yicha Tadqiqot Missiyasi O'zbekiston Respublikasida bo'ldi. Bu tashrifdan avval Osiyo bankining Tanishuv Missiyasi kelgan edi (2000 yil 8-17 fevral kunlari). Keyingi tashrif buyuruvchilarning asosiy vazifasi respublikaga Osiyo bankining Ikkinchi qarzini berish imkoniyatlari va shartlarini ko'rib chiqishdan iborat bo'ldi. Bu ish natijasida 2000 yil 21 aprelda O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Osiyo Taraqqiyot Banki Tadqiqot Missiyasi o'rtasida qarz bo'yicha tadqiqot missiyasining hamfikrlik to'g'risidagi memorandumi imzolandi.

Kutilayotgan qarzdin ko'zda tutilgan asosiy vazifa mamlakatda ishlab chiqarish bazasini kengaytirish yo'li bilan kichik va o'rta tadbirkorlik shu'basini rivojlantirishdan iboratdir. Kutilayotgan qarz bu mablag'larni O'zbekistonning ishtirokchi banklari orqali yo'naltirib, asosiy vositalar, materiallar va texnologiyalar importiga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish uchun xorijiy valutadagi moliyalash ishlarida yordam beradi.

2000 yil 5-20 iyul kunlari respublikamizda bo'lgan Osiyo Taraqqiyot Banki Baholash Missiyasining ish natijalariga ko'ra, Osiyo Taraqqiyot Banki Direktorlar Kengashi 2000 yil 11 dekabrda O'zbekiston Respublikasiga 50 mln. AQSH dollari miqdorida qo'shimcha qarz (Osiyo Taraqqiyot Bankining II kredit yo'nalishi) berilishini ma'qulladi. Bu mablag'lar ishtirokchi banklar o'rtasida quyidagicha taqsimlanishi belgilandi:

✧	O'zmilliybank - 20 mln. AQSH dollari
✧	"Asakabank" - 15 mln. AQSH dollari
✧	"Paxtabank" - 15 mln. AQSH dollari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2001 yil 6 fevralda qabul qilgan "Osiyo Taraqqiyot Bankining O'zbekiston Respublikasidagi kichik va o'rta biznes rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan kreditidan foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 69-son qarorni bajarish maqsadida, Milliy bank hozirdanoq yuqorida aytilgan qarz doirasida loyihalarni tanlashga kirishdi.

Quyida O'zbekiston Respublikasi kichik va o'rta biznes korxonalari uchun Osiyo Taraqqiyot Banki O'zbekiston Milliy banki Ikkinchi kredit yo'nalishining asosiy mezonlari berilgan..

O'zbekiston Respublikasi kichik va o'rta biznes korxonalari uchun Osiyo taraqqiyot banki O'zbekiston Milliy banki Ikkinchi kredit yo'nalishining asosiy mezonlari:

5-jadval

Kreditlardan maqsadli foydalanish:	Mashina-uskunalar va texnologiyalar sotib olinishini moliyalash, mavjud quvvatlarni modernizatsiyalash va rekonstruksiyalash, shuningdek yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish maqsadida kichik va o'rta biznes sub-loyihalarini moliyalash bilan bog'liq ishchi sarmoyaga qilinadigan qisman xarajatlar o'rnini qoplash.
Kreditor:	O'zbekiston Milliy banki.
Qarz oluvchi:	Xususiy kichik yoki o'rta korxona (aralash sarmoya bo'lishi ham mumkin, lekin ko'proq qismi xususiy shu'baga tegishli bo'lishi kerak).
Loyiha:	Eksportga mo'ljallangan yoki import o'rnini bosadigan, valutadagi xarajatlarni o'zi qoplaydigan.
Kreditlash davri:	Ko'pi bilan 8 yil, maksimal imtiyozli davr - 3 yil.
Kreditning minimal summasi:	Kredit summasi kamida 50 ming AQSH dollari bo'lishi mo'ljallangan loyihalar ko'rib chiqishga qabul qilinadi.
Kreditning	3 mln. AQSH dollari, lekin loyiha dastlabki qiymatining

maksimal summasi:	75%dan oshmasligi kerak. (agar so'ralayotgan kredit summasi 3 mln. AQSH dollaridan ko'p bo'lsa, O'zmilliybank loyihani boshqa kredit manbalari hisobidan hammoliyalash imkoniyatini ko'rib chiqishi mumkin. Lekin bunda Qarz oluvchining o'z mablag'lari loyiha qiymatining kamida 25%ni tashkil etishi, kredit summasi esa shu qiymatning 75%dan oshmasligi kerak.)
Uskunalar yetkazib beruvchi:	Faqat <u>OTBga a'zo mamlakatlar</u> . (56 mamlakat - jumladan Osiyo davlatlari, AQSH, Kanada, G'arbiy Yevropa mamlakatlari, Avstraliya, Turkiya. YAqin SHarq, MDH mamlakatlari (Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekistondan tashqari), SHarqiy Yevropa va boshqalar bundan mustasno)
O'z mablag'lari (o'z sarmoyasi):	Loyiha dastlabki qiymatining kamida 25%. Qarz oluvchi o'z sarmoyasi sifatida loyihani amalga oshirish uchun zarur binolar, inshootlar, mashina va uskunalarni, ishlab chiqarishdan avvalgi davrda moliyaviy xarajatlar va oborot sarmoyasini qoplashga mo'jallangan boshqa mablag'larni ko'rsatishi mumkin.
Garov ta'minoti:	Kredit summasining kamida 120%.
Kredit uchun foizlar:	OTB foiz stavkasi negizida + O'zmilliybank marjasi.
Bir martalik vositachilik haqi:	Kredit summasining 1%.

Kreditni boshqarganlik uchun haq:	Kredit summasidan yiliga 0,15% (so'mda).
Majburiyat uchun vositachilik haqi:	Yiliga 0,75% hisobidan, Kredit bitimi imzolangan vaqtdan boshlab qarz oluvchi kredit mablag'laridan to'liq foydalanib bo'lgunicha hisoblanadi (kredit valutasida).
To'lovlar davriyligi:	Har 6 oyda (aprel, oktyabr).

Buyurtmanoma ko'rib chiqilayotganda loyihaning dastlabki qiymatida bino, inshootlar, mashina va uskunalar qiymatidan, ishchi sarmoya, kredit uchun foizlardan tashqari quyidagi moliyaviy chiqimlar ham ko'zda tutilishi kerak:

1.	Bir marta olinadigan vositachilik haqi (yuqoriga qarang).
2.	Bank vositachilik haqi (pul o'tkazganlik, akkreditiv ochganlik va boshqalar uchun).
3.	"Garov to'g'risida"gi qonunga muvofiq, garov shartnomalarini Kadastr xizmatida ro'yxatdan o'tkazish xarajatlari (10 minimal ish haqi), notariusda tasdiqlatish chiqimlari (ko'chmas mulk garovi to'g'risidagi shartnoma summasining 0,5%) - loyiha bo'yicha moliyalash ishlarini boshlashdan oldin.
4.	Sug'urta mukofotlari to'lash xarajatlari (garovga qo'yilayotgan mulk sug'urtasi va h.k.) - loyiha bo'yicha moliyalash ishlarini boshlashdan oldin.

Osiyo taraqqiyot banki ijrochi direktori Chol-Xvi Li O‘zbekistonda

Mamlakatimizga tashrif buyurgan Osiyo taraqqiyot banki ijrochi direktori Chol-Xvi Li 21 iyun kuni mamlakatimizning qator vazirlik va idoralari rahbarlari bilan uchrashdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki boshqaruvi raisi S.Rahimov bilan muloqotda O‘zbekiston bilan OTB o‘rtasidagi aloqalar jadal rivojlanib borayotgani, iqtisodiy infratuzilmani, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish loyihalari ijrosida mazkur moliyaviy muassasa mamlakatimizning yaqin va faol hamkorlaridan ekani qayd etildi.

Mehmon O‘zbekistonda Prezident Islom Karimov rahnamoligida bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirishning zarur huquqiy asoslari ishlab chiqilganini alohida qayd etdi. O‘zbekistonda xorijlik ishbilarmonlar uchun qulay sarmoyaviy muhit yaratilganiga, buning uchun tegishli qonuniy hujjatlar ishlab chiqilganiga yuqori baho berdi.

Uchrashuvda hamkorlikning hozirgi bosqichi muhokama etilib, aloqalarning yangi yo‘nalishlariga oid masalalar yuzasidan atroflicha fikr almashildi.

Yurtimizda mazkur moliyaviy muassasa bilan hamkorlikda umumiy qiymati 914,7 million AQSH dollariga teng 19 loyiha amalga oshirilmoqda. Ular aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirishga, yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga, umumta‘lim maktablarini zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlashga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi bilan Osiyo taraqqiyot banki o‘rtasida ikkita grant-shartnoma imzolandi. Hujjatlarga binoan Osiyo taraqqiyot banki O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalarning umumiy ta‘limini takomillashtirish va ta‘lim sohasidagi islohotlarni qo‘llab-quvvatlash uchun umumiy qiymati 1,5 million AQSH dollari miqdorida mablag‘ ajratadi.

OTB “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasini zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash loyihasida ham qatnashmoqda. Chol-Xvi Li mazkur korxonada ham bo‘lib, u yerdagi ish jarayonlari bilan tanishdi.

OSIYO TARAQQIYOT BANKI PREZIDENTI XARUXIKO KURODA

Oqsaroyda qabul

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 9 noyabr kuni Oqsaroyda Osiyo taraqqiyot banki prezidenti Xaruxiko Kurodani qabul qildi.

- O'zbekiston bilan Osiyo taraqqiyot banki o'rtasida yaxshi, ishonchli aloqalar yo'lga qo'yilgan, - dedi Islom Karimov. - Mamlakatimiz dunyodagi aksariyat xalqaro moliya muassasalari bilan aloqa o'rnatgan, lekin OTB bilan hamkorligimiz alohida o'rin tutadi.

Ikki tomonlama hamkorlik transport infratuzilmasini va shaharlarda suv ta'minoti tizimlarini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi, ta'lim, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. 2005 yil 1 noyabrgacha OTB tomonidan O'zbekistonga 17 loyiha bo'yicha qariyb 740 million AQSH dollari miqdorida mablag' ajratilgan. Ta'kidlash joizki, OTB bu borada xalqaro moliya muassasalari orasida birinchi o'rinda turadi.

Mamlakatimiz rahbari O'zbekiston bilan OTB o'rtasidagi hamkorlik bundan buyon ham mustahkamlanaverishiga ishonch bildirdi.

X.Kuroda OTB O'zbekiston bilan hamkorlikni keng ko'lamda davom ettirish va izchil rivojlantirib borish tarafdori ekanligini ta'kidladi. Samimiy qabul uchun Prezident Islom Karimovga minnatdorlik bildirdi.

Uchrashuvda O'zbekiston-OTB munosabatlariga doir masalalar, qo'shma loyihalar ijrosining borishi va yangilarini ishlab chiqish imkoniyatlari yuzasidan fikr almashildi.

**OSIYO TARAQQIYOT BANKINING "ALOXIDA E'TIBORGA MUXTOJ
BOLALAR UCHUN UMUMIY
TA'LIM" GRANT LOYIXASI TO'G'RISIDAGI AXBOROTNI
XALQ TA'LIM**

O'zbekiston Respublikasi Xukumatining Osiyo taraqqiyot banki o'rtasida 2006 yil 26 may kuni imzolangan kelishuv xatiga asosan Xalq ta'limi Vazirligi qoshida "Aloxida e'tiborga muxtoj bolalar uchun umumiy ta'lim" loyixasi tashkil etildi.

Loyixaning asosiy maqsadi vatanimizda aloxida e'tiborga muxtoj bolalarning o'qitish saviyasini oshirish. Bolalarni xayotga ishonch bilan qarashga o'rgatish va mamlakatimizda "inklyuziv ta'lim" strategiyasini ishlab chiqish va uni amalda joriy etish ko'zda tutilgan. Bundan tashqari loyiha ishi jarayonida o'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish uchun o'quv-metodik qo'llanmalar seminar materiallari ishlab chiqish va alohida etiborga muhtoj bolalarning umumiy ta'lim maktablarida birgalikda bilim olish strategiyasini ishlab chiqish va buning samaradorligini amaliyotda tanlab olingan maktablarda bevosita amalga oshirib kursatish rejalashtirilgan.

Loyihani amalga oshirish maqsadida Xalq ta'limi vazirligi qoshida loyixani amalga oshirish guruhi tashkil etilgan va hozirgi kunda bu guruh o'z ish faoliyatini boshlagan. Bundan tashqari Vazirlik qoshida Milliy muvofiqlashtiruvchi kengash tuzilgan bo'lib bu kengash tarkibida Xalq ta'lim vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi, Oliy ta'lim vazirligi, Respublika ta'lim markazi mutaxassislari faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Viloyatlarda ham mahalliy hokimyat vakillari, maxsus va umumta'lim maktablari o'qituvchilari, ota-onalar vakillari, nodavlat-jamoat tashkilotlari vakillari ishtiroki-da muvofiqlashtiruvchi kengashlar tashkil etilgan.

Loyixada ja'mi 18-ta maktabda, shundan 6-ta maxsus, 12ta umumta'lim maktablarida yuqorida ko'zda tutilgan vazifalar amalga oshiriladi. Shu jumladan regionlar bo'yicha Toshkent shaxrida 2-ta maxsus va 4-ta umumta'lim, Qashqadaryo viloyatida 2-ta maxsus va 4-ta umumta'lim, Surxondaryo viloyatida

2-ta maxsus va 4-ta umumta'lim maktablar loyihaga kiritilgan. Loyihani amalga oshirish uchun Osiyo taraqqiyot banki tomonidan 1.5 mln. AQSh dollari hisobida mablag' ajratilgan.

Tanlab olingan ixtisoslashtirilgan maktablarda ta'mirlash-qayta tiklash ishlarini o'tkazish modernizasiyalash, maxsus jixozlar bilan ta'minlash ishlari, umumta'lim maktablarida esa ta'mirlash, qayta tiklash, modernizasiyalash ishlari bilan birgalikda ularni alohida etiborga muhtoj bolalar ta'limiga moslashtirish ishlari bajariladi.

Nogironlar aravachasida harakatlanuvchi o'quvchilar uchun maxsus qiya yo'lkalar, ko'zi ojiz va ko'rish qobiliyati past o'quvchilar uchun yo'naltiruvchi panjara, qulog'i og'ir va eshitish qobiliyati past o'quvchilar uchun aniq ko'rinadigan ko'rsatkichlar va signallar, to'siqlardan xoli kiyinish xonasi va boshqa moslashtirish ishlari malakali mutaxassislar ishlab chiqqan rejalar asosida amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan va umumta'lim maktablarini informasion va hisoblash texnikasi, internet - aloqa, ixtisoslashtirilgan dasturiy ta'minot va boshqalarga ega bo'lgan maxsus xona tashkil qilish ko'zda tutilgan.

Loyihani amalga oshirish jarayonida rivojlangan mamlakatlar tajribasidan keng foydalanish maqsadida chet ellik mutaxassislar, respublikamizdagi olimlar va malakali mutaxassislar, firmalar, nodavlat-jamoat tashkilotlari maslaxat va takliflari bilan qatnashadilar.

O'qituvchilarning malakasini oshirish inistitutida tanlab olingan maktablarning xar biridan o'qituvchilar "inklyuziv ta'lim" soxasida tajribaga ega bo'lgan yuqori malakali xalqaro mutaxassislar tomonidan o'qitilib malakali mutaxassislar tayyorlanadi.

Osiyo taraqqiyot banki o'z e'tiborini olti asosiy ustuvor yo'nalishlar, ayniqsa ko'proq ta'lim va mintaqaviy hamkorlikka qaratishi lozim, - ta'kidladi O'zR Bosh vazirining birinchi o'rinbosari, iqtisodiyot vaziri Rustam Azimov OTB navbatdagi 38-uchrashuvida.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o‘rinbosari, iqtisodiyot vaziri Rustam Azimov ta’kidlaganidek, OTB tomonidan asosiy e’tibor birinchi navbatda zamonaviy ta’lim tizimini yaratishga, samarador sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishga, transport infratuzilmasini taraqqiy ettirishga, qishloq xo‘jaligi sektorini isloq qilish va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishga qaratishi lozim.

Foydalanilgan Adabiyotlar ro'yxati:

1. . Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 1992 й. 8 декабр.
2. . Ўзбекистон Республикасининг “Чет эл инвестициялари тугрисида” ги Қонуни.
3. . Ўзбекистон Республикасининг “Инвестиция фаолияти тугрисида” ги Қонуни.
4. . Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг
5. “Ташқи иқтисодий фаолиятни янада эркинлаштириш ва такомиллаштириш чоралари тугрисида” 1995 йил 25 июлдаги 287-сон қарори.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг
7. “Ўзбекистон Республикасида ташқи иқтисодий фаолиятни эркинлаштириш бўйича қўшимча тадбирлар тугрисида” 1998 йил 31 мартдаги 137-сон қарори.
8. И.А. Қаримов. Ўзбекистон ХХІ аср бусағасида: ҳавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари, тараққиёт қамолатлари. Тошкент, “Ўзбекистон” 1997 й.
9. И.А. Қаримов. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Тошкент, “Ўзбекистон” 1996 й.
10. И.А. Қаримов. Ўзбекистон иқтисодий ислохотлари чуқурлаштириш йулида. Тошкент, “Ўзбекистон” 1995 й.
11. И.А. Қаримов. Ўзбекистон ХХІ аср интиломда. Тошкент, 1999 й.
12. Ш.З. Абдуллаева “Халқаро валюта – кредит муносабатлари”
13. Тошкент. “Молия – иқтисод”. 2005 й.
14. М. Ҳақимова, Ҳ. Ҳужаев. Б. Махмудов “Халқаро иқтисодий муносабатлар” Тошкент “Ўқитувчи” 1997 й.
15. Abdullayev Sh. “Halqaro-valyuta munosabatlari” 2004 yil

16. Vahobov A.V., Jumayev N.X., Burxonov U.A. “Xalqaro moliya munosabatlari” Darslik. Toshkent “Sharq” 2003yil
17. Hakimova M., Xo’jayev X., Mahmudov B., “Xalqaro Iqtidodiy munosabatlar” Toshkent “O’qituvchi” 1997 yil
18. Антонов В.А. «Мировая валютная система и международные расчёты» Москва.: ТЕИС 2001.
19. Баринов Э.А. «Валютно-кредитные отношения во внешней торговли» Москва.:1996г.
20. Международные организации системы ООН.Справочник Москва международные отношения 1999 г
21. Хасбулатов Р.И. – “Международные экономические отношения” Москва 1998
22. Херрис Дж.Мэнвил- “Международные финансы” Москва 1999
23. European Insurance in Figures 2002year
24. www.itb.org
25. www.boj.org
26. www.cer.uz
27. www.review.uz
28. www.uzland.uz
29. www.ifm.org
30. www.5ballov.ru
31. www.mfa.uz
32. www.uzreport.uz
33. www.referat.uz
34. www.tfi.uz
35. www.adb.org

O'zbekiston va Osiyo Tarraqqiyot Banki

Reja

1. Osiyo Taraqqiyot Bankining vujudga kelishi

2. Osiyo Taraqqiyot Bankining asosiy vazifalari
3. Osiyo Taraqqiyot Banki va O'zbekiston Respublikasi bilan aloqalri